

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

### Tahrir hay'ati

#### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

|  |     |
|--|-----|
| <b>K.Kodirov</b>   |     |
| O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish .....   | 118 |
| <b>B.Jumayev</b>   |     |
| Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....   | 122 |
| <b>U.Usarov</b>  |     |
| Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariiga<br>doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar..... | 129 |
| <b>SH.Tosheva</b>  |     |
| VIII – XII asrlarda O'rta Osyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga<br>xos xususiyatlari .....  | 133 |
| <b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>   |     |
| <b>A.Sabirdinov</b>  |     |
| Tuganmas ilhom manbai .....  | 138 |
| <b>Q.Yo'ichihev</b>  |     |
| Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar .....  | 142 |
| <b>G.Mashrapova</b>  |     |
| Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar .....   | 148 |
| <b>SH.Jumanova</b>   |     |
| Usmon Azim she'riyatida kuz motivi .....   | 151 |
| <b>E.Shevchenko</b>  |     |
| O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha .....   | 155 |
| <b>G.Nazarova</b>  |     |
| Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va<br>ularning o'ziga xosligi.....  | 161 |
| <b>D.Xusenova</b>  |     |
| Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....  | 165 |
| <b>TILSHUNOSLIK</b>  |     |
| <b>X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova</b>  |     |
| Erqonimlarning leksik-semantik xususiyatlari .....   | 169 |
| <b>N.Achilova</b>  |     |
| Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri .....  | 173 |
| <b>Sh.Sultonova, O.Usmonov</b>   |     |
| Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida .....   | 178 |
| <b>Z.Akbarova, G.Sodiqova</b>  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va<br>psixolingvistik asoslari .....                               | 182 |
| <b>I.Saydamatov</b>  |     |
| Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari .....   | 186 |
| <b>Sh.Amonturdieva</b>   |     |
| Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralangvistik omillar .....  | 191 |
| <b>M.Batirxanova</b>   |     |
| Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik<br>funktsiyalarining tadqiqi .....  | 195 |
| <b>N.Djalilova</b>   |     |
| Nofilologik oly o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ<br>kompetentsiyasi .....   | 199 |
| <b>A.Zinatullina</b>   |     |
| O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar .....  | 203 |
| <b>MATEMATIKA</b>  |     |
| <b>A.O'rionov, M.Azizov</b>  |     |
| Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chejaraviy<br>masala .....                         | 207 |
| <b>K.Xalilov</b>   |     |
| Singulyar koefitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart<br>va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....                     | 225 |
| <b>T.Xasanov</b>   |     |
| Davriy cheksiz zonali funktsiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi<br>masalasi.....                              | 232 |

## DINIY USLUBNI YUZAGA KELTIRUVCHI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

### ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ПОРОЖДАЮЩИЕ РЕЛИГИОЗНЫЙ СТИЛЬ

### EXTRALINGUISTIC FACTORS THAT GIVE RISE TO THE RELIGIOUS STYLE

*Amonturdieva Shoira Ravshanovna<sup>1</sup>*

<sup>1</sup>*Amonturdieva SHoira Ravshanovna*

- Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsent v.b Filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori.

#### *Annatatsiya*

Maqolada diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralinguistic omillar haqida fikr yuritilgan. Lingvistik (lisoniy) omillar muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatick birliklarning semantik va funktsional xususiyatlari, ular o'rtaqidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar sanalsa, ekstralinguistic (nolisoniy) omillar tildan tashqarida mavjud bo'lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiyjarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtaqidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir.

#### *Аннотация*

В статье рассматриваются экстралингвистические факторы, порождающие религиозный стиль. Лингвистические (языковые) факторы структурно-Системные особенности конкретного языка - к факторам, существующим вне языка, относятся фонемная система, словарный запас, морфемные типы, словообразовательные модели, грамматические конструкции, семантические и функциональные особенности лексико-грамматических единиц, правила-закономерности, определяющие связи и отношения между ними, к экстралингвистическим (нелингвистическим) факторам относятся: формы социального строя, история процессов, экономические взаимоотношения между народами и нациями, межэтнические и межэтнические отношения, межэтнические и межэтнические взаимоотношения, политические, культурные и образовательные связи, развитие науки, производственно-технический прогресс, общественное мышление, психика человека, его чувства, к ним относятся законы и указы, касающиеся языка и письменности.

#### *Abstract*

The article discusses extralinguistic factors that give rise to the religious style. Linguistic (linguistic) factors structural and systemic features of a particular language - the system of phonemes, vocabulary, morpheme types, word-making models, grammatical construction, semantic and functional features of lexical, grammatical units, the rule that determines the connection and relationship between them-laws are numbered, extralinguistic (nonlinear) factors are factors that exist outside the language: forms of the social system, historicistations, economic, political, cultural and educational ties between peoples and nations, development of science, development of production, these are the laws and decrees on language and writing.

**Tayanch so'zlar:** Lingvistik (lisoniy) omillar, ekstralinguistic omillar, diniy uslub, diniy matnlar,

**Ключевые слова:** Лингвистические (языковые) факторы, экстралингвистические факторы, религиозный стиль, религиозные тексты.

**Key words:** Linguistic (linguistic) factors, extralinguistic factors, religious style, religious texts,

## KIRISH

Nutq jarayonida ishtirok etadigan ekstralinguistic omillar lingvistik omillardan kam bo'limgan darajada til va nutq uslublarini belgilashga xizmat qiladigan muhim jihatlardan biridir. Shu sabab o'zbek tili funktsional uslublari haqida nazariy fikrlar aytilganda va muayyan xulosalarga kelinganda nutqning bu omilini chetlab o'tish mumkin emas. Ayni fikrlar buni isbotlab turibdi. Diniy uslubning tildan tashqari parametrлari uning lingvistik xususiyatlarini belgilaydi. Uning tavsifi nutqning funktsional turlari doirasidagi lingvistik birliklar to'plami bilan nutq muloqotining maqsadlari asosida birlashtirilgan.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ichki va tashqi tilshunoslik (*intra* va *ekstralinguistica*) tilshunoslikda strukturalizm asoschilaridan biri, shveytsar tilshunosi F. de Sossyurga borib taqaladi. F. de Sossyur tilshunoslikni

ikkiga: ichki lingvistika va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni o'zaro bir – biriga qarama – qarshi qo'yadi. U ichki lingvistikaga tilning sistem xarakterga egaligini, tilning tuzilishini (strukturasini) kiritadi. Tashqi lingvistikani esa tilning rivojlanish jarayonidagi, taraqqiyotidagi real shart – sharoitni: jamiyat bilan, jamiyat tarixi, madaniyati, tarixiy voqealar, tilning jo'g'rofiy joylashishi, jamiyatning siyosiy qarashlari, ma'naviy olami kabilalar bilan bog'liq holda oladi. Demak, ichki tilshunoslik tilning sistem tabiatini, uning tuzilishini tekshirsa, tashqi tilshunoslik tilni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda tekshiradi. Negaki jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini ko'rsatadi. SHunga ko'ra til va jamiyat munosabatini tekshirish tilshunoslik fanining – umumiy tilshunoslikning doimiy dolzarb muammosi bo'lib hisoblanadi.[2]

Ta'kidlash kerakki, nutq uslublarini belgilashda tildan tashqari omillar ham zarurdir. SHu bois tilshunoslikda matnning lingvistik xususiyatlari bilan birga, ekstraliningvistik omillarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Rus tilshunosi V.G.Kuznetsov: «Hozirgi zamon uslubshunosligida vazifaviy uslublarni ijtimoiy ongning ma'lum sohalari bilan o'zaro munosabati hamda ijtimoiy munosabatlarga aloqadorligiga bog'liq holda ajratish usuli keng tarqaldi. Moddiy borliqni, real voqelikni aks ettira borib ijtimoiy ong jamiyat hayotining ma'naviy tomoni – ma'lum huquqiy, yuridik, siyosiy, ilmiy, estetik, etik va boshqa tomonlarni, tasavvur va nazariyalarni o'ziga qo'shib oladi. Ijtimoiy ong doirasi uslubga nisbatan birlamchi bo'lib, uning shakllanishi, amal qilishi va rivojlanishini belgilaydi. Ijtimoiy ongning har bir sohasi ma'lum til vositalarini tanlash va (ma'lum matnga) berkitishda o'z ifoda usuliga ega. SHunday qilib, vazifaviy uslublarni aniqlash negizida tildan tashqari omillar bo'lishi kerak».[3]

Aytish mumkinki, rus tilshunosligida ham funksional uslublarni belgilashda ekstraliningvistik omillarga ham e'tibor qaratiladi. Tadqiqotchilar "Ekstraliningvistik va intralingvistik omillarning o'zaro ta'siri, ayniqsa, intensiv lingvistik aloqalar, ikki tilli va ko'p tilli davrda yaqqol seziladi" [4] deb ta'kidlashadi.

O'zbek tilining funksional uslublariga xos bo'lgan ekstraliningvistik jihatlar haqida esa prof. S.Karimovning «O'zbek tilining funksional stilistikasi» asarida ma'lumot berilgan[6]. Unda qayd etishilicha, o'zbek tilida majud bo'lgan har bir funksional uslubning o'ziga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlari bo'lgani kabi ekstraliningvistik jihatlari ham mavjud.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Barcha tillarda bo'lgani kabi, hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilashda ham ikki omil muhimdir. Bular:

1. **Lingvistik** (lisoniy) omillar. Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtaqidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti, birinchi navbatda, ana shularga tayanadi.

2. **Ekstraliningvistik** (nolisoniy) omillar. Bularga tildan tashqarida mavjud bo'lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiyjarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtaqidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga ye'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o'zbek tili leksikasiga ham ta'sir o'tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykom, obkom, sovxozi, oblast kabi so'zlar) iste'moldan chiqib, o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy qatlamiga o'tib qoldi, ularning o'rnila hozirgi mustaqil O'zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (kollej, litsey, gimnaziya, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes kabilalar) paydo bo'ldi, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma'no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so'zlar yeski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tib qoldi.

Nazariy qarashlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit

## TILSHUNOSLIK

yaratadi, har ikkalasi bir butun mexanizm sifatida xizmat qiladi. Boisi til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

Aytish mumkinki, tashqi tilshunoslik - **ekstralivingvistika** tilning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan etnik, ijtimoiy, tarixiy, geografik omillar majmuini o'rganadigan bo'lum.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ekstralivingvistik omillar lingvistik omillardan kam bo'limgan darajada til va nutq uslublarini belgilashga xizmat qilishda muhim sanaladi. O'zbek tilining mavjud funksional stillarini belgilashda ham ayni jihatlar e'tiborga olingan.

Avvalo, diniy matnlarning turini sanab o'tish va ularning har biriga xos bo'lgan ekstralivingvistik omillarni belgilash o'rinni deb o'yaymiz.

Diniy matnlar ham boshqa matnlar kabi og'zaki va yozma ko'rinishda bo'ladi. O'zbek tilidagi islom diniga oid og'zaki va yozma diniy matn turlarini quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash mumkin:

- Qur'on tafsiri
- Hadislar
- Diniy ilmiy asarlar: tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh, aqida kabi yo'naliishlarda yaratilgan ilmiy matnlar
- Dinga oid terminografik va qomusiy lug'atlar
- Diniy publisistik matnlar
- Diniy va'zlar
- Duo matnlari
- Mavludi shariflar
- Diniy fatvolar
- Vaqf xujjatlar

Bu turdagи matnlarning har biri o'ziga xos ekstralivingvistik omillarga ega.

**Tafsir** – lug'atda: "izohlash", "bayon qilish" va "tushuntirish" degan ma'nolarni anglatadi.

Istilohda esa, ulamolar tafsirga turlicha ta'rif berganlar. SHulardan biri Imom Suyutiy shunday ta'rif bergan: "U- oyatlarning nozil bo'lishi, shuu'ni, qissalari, nozil bo'lish sabablarini bilish. So'ngra, Makkaiy va Madanaiy oyatlar tartibi, muhkam va mutashobih bayoni, nosix va mansuxi, xos va ommasi, muqlaq va muqayyadi, mujmal va mufassari, halol va haromi, va'da va vai'ydi, buyruq va qaytariqlari, ibrat va shu kabilarini bilishdir".

Abu Hayyon rohmatullohi alayhi shunday ta'rif beradilar: "U- Qur'on lafzlari bilan, uning madlullari, ifrod va tarkibiy hukmlari, tarkib holati yehtimol qiladigan ma'nolar va mana shularning tamomi babs qilinadigan ilmdir". Bu ta'rifda juda ko'p noqisliklar bor.

Imom Zarkashiyning ta'ifi yuqoridagi ikki ta'rifdan ham ravshanroqdir. "Tafsir: Alloh taoloning Rasuli Muhammad alayhissalomga nozil qilingan Allohning kitobi, uning ma'nolarining bayoni, hukmlarini chiqarib olish u ila tushuniladigan, lug'at, nahv, sarf, ilmul bayon, usulul fiqh va qiroatlar unga madad beradigan, sababi nuzul, nosix va mansuxni bilishga yehtiyoj bo'ladigan ilmdir".

Biz zikr qilgandan boshqa ko'plab ta'riflar bor. Barchasi mana bunga muvofiq keladi: "albatta, tafsir ilmi- Bashariyat toqati miqdoricha Alloh taoloning murodi haqida babs qilinadigan ilm. Bas mana shu ma'nolarni tushunish va murodning bayoni tavaqquf qiladigan barchasini o'z ichiga qamrab oladi".[6]

**Hadis** – lug'atda: "Yangi", "Suhbat" degan ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa, hadis Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so'zları, qilgan ishlari, iqrorlari va sifatlariga aytildi.[7]

Diniy ilmiy asarlar: **tajvid, hadisshunoslik, islom tarixi, fiqh, aqida** kabi yo'naliishlarda yaratilgan ilmiy matnlar kiradi.

**Tajvid** – Lug'atda "Yaxshilash", "go'zal qilish" degan ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa, "Qur'oni Karimni Alloh taolo Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nozil qilganidek, har bir harfini o'z maxrajidan chiqarib, uning zotiy va oriziy sifatlarini ado qilgan holda talaffuz etishdir".[8]

**Islom tarixi** – Qadimgi – Islom shariatidan oldingi tarix Odam alayhissalomning yaratilishidan boshlanib, Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallamning

payg'ambarliklarigacha davom etadi. Alloh subhanahu va taolo Qur'oni Karimda o'tgan ummatlarning qissalarida ibrat borligini ta'kidlab, Yusuf surasida shunday marhamat qiladi:

**«Batahqiq, ularning qissalarida aql egalari uchun ibrat bor edi» (111-oyat).**

Qur'on va uning qissalari to'qima, uydirma emas, balki avvalgi ilohiy kitoblarda kelgan xabarlar tasdig'idir. SHuningdek, Qur'on har bir narsani mufassal bayon qiluvchidir. Agar u to'qilgan va uydurma bo'lganida, bu qadar mufassal, bu qadar aniq va ravshan, bunchalar mu'jizakor bo'la olmas edi.

**Fiqh** – lug'atda: "tushunish" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa: "shar'iy amaliy hukmlarni bilish" degani. **Aqida** – lug'atda: "Aqida", "e'tiqod" degan ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa: "Qalb unga bog'langan va qat'iy unga qaror qilgan narsasi" ga aytildi.

**Dingga oid terminografik va qomusiy lug'atlar** – "Islom entsiklopediyasi", M.Umarxo'jaevning "Diniy atamalar va iboralar", J.Omonturdiev, A.Omonturdievlarning "Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati" shular jumlasidan. [9.10]

**Diniy publisistik matnlar** – ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari, gazeta va jurnallarda e'lon qilingan diniy mazmundagi maqolalar.

**Va'z** — xitobat - islomda, asosan, yaxshilik va yezgulikka chaqiruvchi da'vat. Va'z ibrat mazmunida ham ishlataladi. Va'z aytuvchilar, bu borada mutaxassis bo'lgan shaxslar "voiz" deb yuritiladi. Islomda ilk voizlardan biri Hasan Basriy (728 y.v.e.) bo'lgan. U garchi arab bo'Imasa-da, arab nutqining mashhur ustoziga aylangan.

### XULOSA

O'zbek tilining boshqa funksional uslublariga doir matnlarda bo'lgani kabi o'zbekcha diniy matnlarda ham anqlik asosiy o'rinda turadi. Ifodaning bu jihatni til tejamkorligini, lo'ndalikni, ayni vaqtda, tezkorlikni ham taqozo etadi. Yuqori bilim va materialni yetkazishdagi notiqlik va samimiyat adresat hurmatini qozonishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridaq ekstralingvistik omillar diniy matnlar uslubining o'ziga xosligini, boshqa uslublardan ularning farqli xususiyatlarini yuzaga keltiradi. DMLar shakllanishida bevosita ishtirok etadigan ushbu omillar o'zbek tili funksional uslublar tizimida tildan foydalanishning yana bir alohida uslubi – **diniy uslub** mavjudligini ko'rsatadi.

Binobarin, tilshunoslik va nutq madaniyati uchun mavjud nutq uslublarining ilmiy tahlil etilishi va o'rganilishi dolzarb masala bo'lgani kabi bugungi tilimida tobora mustahkamlanib borayotgan diniy til ham har jihatdan chuqur o'rganilishi lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Прохватилова. О.А. Экстраграмматические параметры и языковые характеристики религиозного стиля. Развитие и функционирование русского языка. – РОССИЯ..2010 г
  2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Respublika oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakulteti bakalavrлari uchun darslik. – Toshkent. 2013 yil. Б-96.
  3. Кузнецов В.Г. Функциональные стили современного французского языка. – М.,1991, с.14.
  4. Ахманова О, С., Панфилов В.З., Тилнинг ишлаши ва ривожланишидаги экстраграмматик ва интраплингвистик омиллар // "Тилшунослик масалалари", 1963, Б - 4.
  5. Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
  6. Abu Lays Samarcandiy.Tafsiri Samarcandiy al-musammo bahrul ulum. Dorul kutubil ilmiyya Bayrut-Lubnon .1993. 13-14-betlar.
  7. Taysir mustalahul hadis. Dr. Mahmud Tohhan. Markazul huda liddirosat. 1984. 16-bet.
  8. Odinaxon Muhammad Sodiq.Mufassal tajvid. – T.: Hilol. 2014. 21-bet.
  9. Islom entsiklopediyasi. –Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017
- Omunturdiyev J., Omunturdiyev A. Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.